

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKASINING RIVOJLANISHIDA
JADIDLARNING O‘RNI: JURNALISTIKADA YANGI TREND**

Murtozayeva Nigora Murtoza Qizi

Samarqand Davlat Chet tillari instituti

Xalqaro Jurnalistika yo‘nalishi talabasi

*Email: **nigoradolat789@gmail.com***

Tel: +998957603637

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidlarning jurnalsitika rivojlanishi uchun qo‘ygan qadamlari hamda buning natijasida internet jurnalistikasining tendensiyalanishi o‘rganiladi. Milliy va xalqaro matbuot rivojlanishining internet jurnalistikasiga ta‘sirini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston matbuotining rivojlanish tarixini chuqur o‘rganish va jurnalistikada publikatsiyaning rivojlanishi atroflicha ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidlar, publitistika, matbuot, internet jurnalistika, Turkiston, media, yangiliklar, jurnalistika terminlari*

Abstrakt: *This an article examines the steps taken by the Jadids for the development of journalism and the resulting trends in Internet journalism. Analyses the impact of national and international press development on Internet journalism. The purpose of the study is to study in depth the history of the development and press of Uzbekistan ; The development of publishing in the field of journalism has been looked at in detail.*

Key words: *Jadids, journalism, news, Turkestan, internet journalism, media, press, journalism terms.*

Абстрактный: *В данной статье рассматриваются шаги, предпринятые Джадыдами для развития журналистики, и вытекающие из этого тенденции в интернет журналистике. Анализирует влияние развития национальной и международной прессы на интернет – журналистику. Целью исследования является изучение истории становления прессы Узбекистана; Подробно рассмотрено развития издательского дело в сфере журналистики.*

Ключевые слова: *Джадиды, журналистика, пресса, интернет-журналистика, Туркестан, СМИ, новости, журналистские термины.*

KIRISH

O‘zbekiston va unda yashayotgan xalqning tarixiga nazar solib qaraydigan bo‘lsak, bir necha ming yilga borib taqaladi. Bunday deyishimizga sabab

shundaki, u turli xalqlar tarkibida turlicha nomlarda yashagan, o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan eng ko‘hna shajaralardan birdir. Ular qadimdan o‘ziga tegishli va unga yondosh bo‘lgan xalqlarga ziyo va ma‘rifat ulashib kelgan xalq sanaladi. Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o‘ynadi. O‘zbekistonda matbuot hamda jurnalistikaning rivojlanishiga jadidlarning harakatlari peshqadam bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz. Ushbu maqola Yangi O‘zbekiston jurnalistikasi tarixiga nazar soladi hamda ommaviy axborot vositasida yangi trendni zarur omillar sifatida o‘rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Internet jurnalistikasi va jurnalistikada publikatsiyaning rivojlanishi haqida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Birinchi navbatda matbuotning tendensiyalanishiga ta’sir ko‘rsatgan asarlar o‘rganiladi va tahlil qilinadi. O‘zbekiston kontekstida esa, jadidlarning Turkiston madaniyati rivoji hamda ijtimoiy-siyosiy faktorlar rolini ko‘rsatadigan tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy adabiyotlar tahlillar ko‘rib chiqiladi,

-Turkistonda hududiy ommaviy axborot vositalari rivojlanishi natijasida Yangi O‘zbekiston matbuoti hamda jurnalistika roli.

-Jadidlar faoliyatining bugungi jurnalistikaga ta’siri.

-Ijtimoiy tarmoqlarda va matbuotda publitistikaning roli va ahamiyati.

Turkistonning madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Toshkent shahrida o‘lkaning to‘ng‘ich gazetasi “Turkestanskiy vedomosti” 1870 yil 28 aprelda chiqa boshlagan edi. Ushbu gazeta Rossiya guberniya vedomostlariga tenglashtirilgan bo‘lib, unga amaldorlar obuna bo‘lishi majburiy edi. [1;17-534-5b] Turkiston general-gubernatorligi bu gazeta orqali o‘z g‘oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa-da, amalda matbuot o‘lkani har tomonlama o‘rganib hamda rus aholini Turkiston hayoti bilan tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish borasida alohida ahamiyat kasb etgan edi. Turkistondagi birinchi o‘zbek tilidagi gazeta “Turkiston viloyatining gazet” 1870-1883 yilgacha “Turkestanskiy vedomosti” gazetasiga “Ilova” tarzida chiqarilar edi. Bu gazeta bir oyda 4 marta – 2 marta o‘zbek tilida va 2 marta qirg‘iz tilida chiqa boshladi. 1883 yil 30 yanvardan 500 nusxada alohida gazeta sifatida chiqa boshladi. 1888 yilga kelib gazeta 600 nusxadagina bosilib, uning asosiy qismi majburiy obunachilarga aylantirilgan mahalliy amaldorlarga jo‘natilgan.[1;28-60-82b] “Turkiston viloyatining gazet”ning muharriri N. Ostroumov gazetaning o‘quvchilari kamligini milliy tildagi dastlabki gazeta bo‘lganligi va mahalliy aholi uchun pulga gazeta sotib olib o‘qish yangilik ekanligi bilan izohlagan edi.6 Aslida esa Turkiston aholisi ziyolilari orasida Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chiqqan “Tarjimon” gazetasi mashhurroq bo‘lgan o‘sha davrning o‘zidayoq

“Turkiston viloyatining gazetasi” xalq orasida katta obro‘ga ega emasligi sabablarini ochishga ma’lum ma’noda harakat qilingan. Mazkur gazetaning moliyaviy ahvoli ancha og‘ir bo‘lib, ayniqsa 1912-yilning oxiri – 1913-yillarda mablag‘ yetishmasligidan gazetaning yopilish xavfi ham bor edi. Faqat Toshkentda mahalliy tilda xususiy gazetalar chiqarishga harakat qilinayotganligi, bu esa hukumatga qarshi kayfiyatlar tarqalishiga olib kelishini hisobga olgan Turkiston general-gubernatorligi “Turkiston viloyatining gazetasi”ni moliyaviy tomondan qo‘llab turishga uringan edi. Hatto, 1913 yilning 5 yanvarida Turkiston general-gubernatori harbiy vazirga xat yozib, ushbu gazetani bosib chiqarishga mablag‘ so‘ragan, so‘ralgan mablag‘ning nechidir foizi qoplab berilganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Lekin “Turkiston viloyatining gazetasi” Rossiyaning boshqa joylarida, ya’ni Gelsingfros, Qozon, Qashg‘ar, Boqchasaroy, Moskva, Omsk, Peterburg shaharlarida ham oz bo‘lsada o‘quvchilariga ega edi. Ushbu gazeta sahifalarida, Turkistonda boshqa milliy gazeta yo‘qligi tufayli Ishoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov va shu kabi taraqqiyparvarlar madaniy-ma’rifiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib, mahalliy aholining dunyoviy ilmlarga, fan va texnika, boshqa xalqlarning ilg‘or madaniy va adabiy merosiga qiziqishini kuchaytirganlar. Shu tariqa matbuot xalq uchun oyna bo‘lganligi, jadidlarning qalami o‘tkiriligiga yaqqol na’muna bo‘la oladi. Bundan tashqari Turkiston xalqi oldidagi ulkan xizmatlari xurmat bilan yod etiladi. 1926-yilda Behbudiy vafotining 7 yilligi Turkiston, Turkiya, va Germaniyada (turkistonlik talabalar tomonida) keng nishonlanadi.[13; 6-bet] Shundan aytishimiz mumkinki jadidlar qoldirgan iz yillar davomida tillarda doston bo‘lib, hamisha biga yod bo‘lib qoladi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqola sifatli va miqdoriy usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Tahlil qilishdan quyidagi metodlardan foydalandim.

Adabiyotlar tahlili: O‘zbekiston va dunyo bo‘ylab jadidlarning matbuot bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatini ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarni o‘rganish.

Kontent tahlili: O‘zbekistonning asosiy onlayn ommaviy axborot vositalarini kontentini tahlil qilish. Bu, internetda Turkiston matbuoti tarixi hamda jadidlarning bunga qo‘shgan o‘z hissalariga haqida tarqatilgan yangiliklar va ularning xalqaro miqyosdagi muvozanati haqida ma’lumot beradi.

Sotsiologik so‘rovnoma: O‘zbek adabiyot shunoslari hamda OAV vakillari o‘rtasida olingan so‘rovnomalar va intervyular.

Kvantitativ tahlil: O'zbekiston va dunyo bo'ylab Jadidlarning OAV qo'shgan hissalarini internetda mavjudligi va ular tomonidan taqdim etilgan materiallar soni va sifatini o'rganish.

NATIJALAR

O'zbekistonda Ommaviy axborot vositalarini raqamli formatga o'tishi xabarni yetkazib berish va uni qabul qilishda yangicha shart sharoitlarni yaratib berdi Albatta jurnalistikaning yangilanishi uni tendensiyalanishida Jadidlarning matbuotni takomillashtirib berganligi natijasida jurnalistika sohasida (WEB 2.0) ya'ni internetning o'rni beqiyosdir. Ta'kidlash joizki jurnalistikaga bo'lgan talab kuchayib uning yangicha ko'rinishlari namoyon bo'la boshladi. Milliy matbuotimizda publitistikaning tarixiy ildizlariga nazar soladigan bo'lsak, ko'pchilik tadqiqotchilar mavzuni taniqli jurnalist Ziyo Said “O'zbek vaqtli matbuoti tarixi” ga materiallar” asarida o'zbek matbuoti tarixi “Turkiston viloyatining gazetasi” nashr etilgan vaqtdan boshlangan deya ta'kidlaydi. Ammo xalqimiz madaniyati tarixida bugungi til bilan ataliyotgan – publitistika (lot: “ijtimoiy”) lug'aviy ma'nosidan ma'lumki, davrning ijtimoiy, siyosiy va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan adabiy ijod turidir. Publitistika taroziga ham o'xshaydi. Uning bir pallasida badiiy adabiyot, ikinchisida jurnalistika turadi. Badiiy publitistik janrlar – ocher, esse, fletton, pamfletlarda badiiy adabiyot unsurlari ko'zga tashlanadi. Jurnalistikaning yangi turiga bo'lgan ehtiyoj internet jurnalistikasining tendensiyalanishiga sabab bo'ladi. XXI asr axborot texnologiyasi hamda internet asri bo'lganligi tufayli autoriyaning kengayishi content tezligi va sifati natijasiga aylandi. Kontent istemolchiga veb-saytlar va ilovalar orqali yetkazilishi adresantlar uchun tezkor va qulay sharoitlarni yaratadi. Natijada jurnalistikadagi yangi trend deya internet jurnalistikasi aytishimiz mumkin. O'zbekistonning internet jurnalistikasi sohasidagi muvaffaqiyatlari, nafaqat internet jurnalistikasidagi balki badiiy adabiyotimizni ravnaqi, mamlakatda axborot erkinligini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga jadidlarimizni faoliyatini yodda saqlab Yangi O'zbekiston kelajagi uchun amalda qo'llashimizni hisobga olishimiz muhimdir.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston internet jurnalistikasi sohasi rivojlanishi va medianing o'rni tobora kuchayib borayotgani sir emas. Jadidlar faoliyatidan bizgacha yetib kelgan publitistikaning sir sinoatlarning mahsuli sifatida yuqorida keltirilgan gazeta va jurnallarni ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon o'z navbatida jadidlarning metodologiyasini hamda ilmiy metodini bugungi kun yosh avloddan yetuk kadr ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uzhurriyat.uz.2016/09/03/publitistika.tarixiy.manba/>
2. O'zR.MDA 1-jamg'arma, 28-ro'yxat, 60-ish; 82-bet
3. OzR MDA 1-jamg'arma, 17-ro'yxat, 534-ish, 5-bet
4. Остроумов. Н.П., “Сарты”, Т., 1894г
5. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
6. www.literature.uz
7. www.library.ziyonet.uz
8. Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy Toshkent-2010

BOSHLAN'ICH SINFLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
YORDAMIDA MATEMATIKA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Umarova Zulfizar Otabek qizi

Navoiy davlat universiteti

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Husenova Muhtaram Husniddin qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy interaktiv vositalar, raqamli platformalar va ilovalarning o'quvchilarning qiziqishini oshirish, tushunchalarni chuqurroq anglash va mustahkamlashga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida gamifikatsiya, sun'iy intellekt va virtual laboratoriyalarning o'rni ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar asosida innovatsion yondashuvlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishi samaradorligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, matematika ta'limi, interaktiv o'qitish, gamifikatsiya.*

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of using digital technologies in teaching mathematics in elementary grades. The impact of modern interactive tools, digital platforms and applications on increasing student interest, deepening understanding and strengthening of concepts is considered. Also, the role of gamification, artificial intelligence and virtual laboratories in the process of mastering mathematical knowledge will be highlighted. The results*